

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NA'MUNALARINING O'RNI (ERTAK TALQINIDA)

Jabbarova Aziza Shixnazarovna,

Buxoro davlat universiteti erkin izlanuvchisi,

Buxoro innovatsiyalar universiteti boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda milliy, xalq og'zaki ijodi na'munalarining o'rni (ertak talqinida) haqida so'z yuritilib, umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limning yoshlar ma'naviyatidagi o'rni milliy ruhdagi talqini, hamda xalq og'zaki ijodiyotining namunalari keyingi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy poydevori vazifasini o'tashi, shuningdek boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining boshlang'ich ta'limda tahsil oluvchi maktab o'quvchilarining bilim va tafakkurini mustaqil oldimlashi, ta'limning keyingi bosqichlarini ushbu tizim orqali yanda samarali o'zlashtirishda, xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyosligi ilmiy tahlil qilib ochib berilgan.

Bizga ma'lumki xalq og'zaki ijodi hali yozuv paydo bo'lmagan davrlardayoq shakllanib oddiy xalq tili bilan aytilgan rivoyatlar, ertaklar, matallar, hikoyalar oddiy xalqning turmush tarzi, ijtimoiy kelib chiqishi, mehnat faoliyati, milliy urf-odatlar, e'tiqodi, olam va odam haqidagi tasavvurlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'z: Xalq og'zaki ijodi, ertak, ma'naviyat, yozuv, maktab, ta'lim, bilim, ona tili, o'qish savodxonligi, qadiryat, qahramon, obraz, tarbiya.

Аннотация: В данной статье говорится о роли образцов национального, народного устного творчества (в интерпретации сказок) в формировании мировоззрения младших школьников, а также о духовности молодежи начального образования в общеобразовательных школах. место в национальном духе, а образцы народного устного творчества послужат фундаментом дальнейшей системы непрерывного образования, а также базового образования предметов родного языка и грамотности чтения, преподаваемых в начальной школе. Научный анализ выявил несравнимую роль народного творчества в самостоятельном развитии знаний и мышления школьников, обучающихся в лиме, в эффективном усвоении основных ступеней образования через эту систему.

Как известно, повести, сказки, сказки и повести, рассказанные на простом народном языке, формировались в те времена, когда народное устное творчество еще не было развито, выражаются его представления о мире и человеке.

Ключевые слова: фольклор, сказка, духовность, письменность, школа, образование, знания, родной язык, грамотность чтения, доблесть, герой, образ, воспитание.

Annotation: This article talks about the role of national, folk oral creativity examples (in the interpretation of fairy tales) in the formation of the worldview of primary school students, and about the youth spirituality of primary education in general education schools. the interpretation of the place in the national spirit, and examples of folk oral art will serve as the foundation of the further continuous education system, as well as the basic education of the subjects of mother tongue and reading literacy taught in primary education Scientific analysis revealed the incomparable role of folk art in the independent development of knowledge and thinking of schoolchildren studying in lim, in the effective assimilation of key steps of education through this system.

As we know, the narratives, fairy tales, tales, and stories told in the ordinary folk language were formed in the times when the folk oral creativity was not yet developed. his ideas about the world and man are expressed.

Key words: folklore, fairy tale, spirituality, writing, school, education, knowledge, mother tongue, reading literacy, valor, hero, image, upbringing.

KIRISH

Hozirgi kunda yangi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy o'zbek adabiyotini rivojlantirishda, jumladan, o'zbek adabiyotshunosligida hamda bolalar adabiyotidagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda[1.1].

Ayni shu kunlarda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy o'zlikni anglashga o'rgatish, ularning mafkuraviy olamini sog'lom shakllantirish bo'yicha oldimizda muhim vazifalar turganini unutmagan holda milliy qadriyatlarni o'zida saqlab kelayotgan ertak, rivoyat, afsonalarni yoshlar ma'naviyatiga singdirish muhim oldimlashlarimizdan biri hisoblanadi. Bu kabi milliy adabiyotimizning na'munalarida badiiy tafakkurining eng sara badiiyati yashiringan[1.4]. Buni anglash va ularni qayta kashf etish kishiga hayotni tushunish, odam va olam munosabatlarini o'rganishga yordam beradi. Shu ma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodining tur va janrlarini o'rganish, ular ustida ishlash va ularning turli davrlarda turli ijtimoiy vazifani bajarishini o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

Bilamizki, maktabda boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining asosiy poydevori hisoblanadi. Bu bosqichda o'qitiladigan fanlar orqali o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikmalari, shuningdek ta'limning keyingi bosqichlarini

samarali o'zlashtirishga nisbatan motiv shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqol, ertak, topishmoq, tez aytish janrlari orqali o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda o'qish darslari asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi[2.68]. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda Milliy Dastur talablarining mohiyatini to'liq anglab yetish va ta'minlash, savod o'rgatish bosqichida o'quvchilar nutqini o'stirishga alohida ahamiyat berish, shuningdek o'quvchilarning bog'lanishli nutqlarini shakllantirish shakl va vositalarini aniqlash orqali jamiyat talablari asosidagi mustaqil fikrlovchi kadrlar tayyorlash samaradorligi oshadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirishning shaklidir.

Xalq og'zaki ijodi – xalq ya'ni mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir[12].

Xalq og'zaki ijodi - insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l – atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz[6.7].

“Ertak” so'zi “er”, aslida “ir” (“yir”, jir) so'ziga o'xshatishni bildiruvchi “tak” qo'shimchasining qo'shilishidan tarkib topgan bo'lib, qo'shiqqa o'xshash degan ma'noni anglatadi. Negaki, ertaklarning sajli boshlanmasi qo'shiqqa o'xshab ketadi. Shuningdek, ba'zi ertaklar tarkibida she'riy qismlar ham uchrab turadi. Bu o'rinda “Musicha”, “Yoriltosh” ertaklarini eslash kifoya[11.5,7]. Lekin ertakda she'riy parchalar uchrashi odatiy hol emas. Shu sababli ertak xalq nasri namunasi hisoblanadi.

Ertaklarning-paydo bo'lishi haqidagi ba'zi bir mulohazalarimizni aytib o'tsak. Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janrdir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini kechirgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan. So'zga sig'inish, ilohiy kuchlarga sig'inish, animistik, totemistik, fetishtistik e'tiqodlar, gallisunatsiya va tush ta'sirida fantastik (taxayyuliy) vositalarga to'lisha borsa, hayvonlarni ovlash, xonakilashtirish, ular inonchlariga ishonish, hayvon mahsulotlaridangina emas, balki kuchidan ham foydalanish jarayonlarida hayvonlar haqidagi ertaklar paydo bo'la boshladi. Asta-sekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini omuxtalashtira borish, u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi[11.93

]. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar yuzaga kela boshladi. Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada hayotiy uydirmalar asosidagi maishiy ertaklar paydo bo'la boshladi. Shu zaylda ertaklar ijtimoiy-estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topadi.

Ertaklarimizda xayoliy uydirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'ziga xos qurilishi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ba'zi ertaklar “Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh (yoki cho'pon) bo'lgan ekan”, “Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot” kabi qisqagina boshlamalar bilan boshlansa, ba'zi boshlamalar ancha uzun bo'ladi. Masalan, mana bu boshlamaga e'tibor bering: “Ertagiyo ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor. Bir bor ekan, bir yo'q ekan...”

Professor X.Egamovning yozishicha, “ertaklarda eng ko'p tasvirlangan nikoh formalaridan biri ekzogamiya bo'lib hisoblanadi. Ona urug'i davrida urug' a'zolari bir-biri bilan qarindosh hisoblanib, urug' ichida o'zaro uylanishga ruxsat etilmagan. Ularning xotin-qizlari boshqa urug' erkaklari bilan nikohdan o'tganlar... Ekzogamiyaning ta'siri tufayli bo'lsa kerak, xalq og'zaki ijodi, jumladan ertaklarda qahramon ko'pincha urug'dan tashqaridan, uzoqroq yurtdan yor izlab ketadi. Tushida ko'rgan yoki rasmini ko'rgan, birovdan eshitgan qizni qidirib, safarga o'tlanadi”

Ertakdagi qahramonning yo'l yurishi (“safar” motivi), chashma oldida dam olishi (mifologik qarashlarga ko'ra, chashma hayot daraxtining tubi bilan assotsiatsiyalansa, ertak qahramonlarining chashma bo'yida dam olish epizodini epik qahramonning yer ostida joylashgan o'zga makonga o'tishi motivining epik ko'rinishlaridan biri deb qarash mumkin), bolta bilan teshaning yo'qolishi (ertaklarda biror narsa-buyum yoki malikaning raqib tomonidan o'g'irlanishi sifatida talqin etiluvchi “yetishmovchilik” motivining epik transformatsiyasi), bolaning yo'qolgan buyumlarni izlab ketishi va topib kelishi (epik qahramonning o'zga olamga safari va o'g'irlangan narsa, podsho sharti bo'yicha talab qilingan g'aroyib buyum yoki parini olib kelish shart bo'lgan[6.7].

Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti millat poetik tafakkurining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi qadriyatlar tizimi bo'lishi bilan birgalikda, uning ma'naviy-ruhiy komillikka erishuvida muhim rol o'ynagan manbalardan biri ham hisoblanadi.

Xalq ertaklarining badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ertaklar xalq og‘zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.

Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina (“Voriltosh”, “Tohir va Zuhra” va b.) qo‘shiqni eslatuvchi she‘riy parchalar uchraydi. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” boshlamasi va “murod-maqsadiga yetibdi” yakunlanmasi ertaklarning an‘anaviy belgisi hisoblanadi[10].

Hayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo‘llanadigan ustuvor usuldur.

Biz ertaklardagi uydirmalarga to‘la ishonamiz, asar qahramonlarining taqdiriga befarq qaray olmaymiz, sevikli malika yoki cho‘pon muvaffaqiyat qozonsa, bu g‘alaba o‘zimiznikidek quvonaveramiz. Xalq ertaklari mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o‘z ifodasini topadi, desak xato bo‘lmaydi. Shuning uchun ham er yuzining hamma mintaqalarida yashaydigan xalqlarda umumiy hayot tarzi yaqin bo‘lgani sabab bir xil mazmundagi ertaklar ko‘p uchraydi.

NATIJALAR

Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodi hali yozuv paydo bo‘lmasdan yuzaga kelgan. Xalq og‘zaki ijodiyotiga mansub asarlarda har bir xalqning turmush tarzi, ijtimoiy- maishiy hayoti, mehnat faoliyati, e‘tiqodi, olam va odam haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topadi. Shu bois ham muayyan xalqqa mansub badiiy yaratilgan o‘sha millatning o‘zligini namoyon qiladi. Qadimdan qardosh bo‘lib kelgan bu xalqlar poetik ijodida sharqona an‘analari, urf-odatlar, orzu-istaklar aks ettirilgan. Insoniyat yaralishining ilk davrlaridanoq, uning hayot kechirishi, jismoniy faoliyati uchun moddiy ehtiyojlar yetakchilik qilib kelgan. Undan so‘ng esa jamiyatlar rivojlanishi, insonlarning o‘zaro muloqotda bo‘lishi, turli xil bayram va marosimlar, mehnat va jang vaqtlarida ulardagi ma‘naviy ehtiyojga bo‘lgan talabning ortib borishi namoyon bo‘la boshladi. Ammo bundan xulosa qilib, ma‘naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar natijasida kelib chiqadi, deb o‘ylamasligimiz lozim. Zero, birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, “Moddiy va ma‘naviy hayot bir qushning ikki qanotidek bo‘lib, uning parvoz qilishi uchun har ikkalasi ham o‘ta muhimdir”. Ma‘naviyat haqida so‘z borar ekan, bu borada san‘at va madaniyatning, xususan, qadimdan rivojlanib kelayotgan folklor-etnografik merosimizni o‘rni naqadar beqiyos ekanligi hammamizga ma‘lum. Nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi bo‘lgan xalq ijodiyoti, folklor qo‘shiq ijrochiligi, O‘zbekistonimizning har bir hududida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har bir hududning folklor qo‘shiqlari, urf-odatlari, milliy kiyimlari, milliy raqs va hunarmandchiligi, tarixi va yashash tarzi o‘ziga xos. Hammamizga ma‘lumki, folklor ijrochiligi xalqning turmush tarzi, odob axloqi, urf-odatlari, an‘analari, diniy e‘tiqodining ayrim jihatlari o‘zida mujassamlashtirib, orzu umidlari, mehnatga, Vatanga bo‘lgan muhabbatini, ahdda vafo, erk ozodlik uchun kurashdagi mardonavorlikni tarannum etadi[7].

Folklorning asosini xalq og‘zaki ijodi tashkil qiladi. Xalq og‘zaki ijodi - mehnatkash xalq ijodidir. Uning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, hatto insoniyat yaralishining ilk bosqichlaridanoq desak ham mobolag‘a bo‘lmaydi. U og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o‘tib, xalqning iste‘dodli vakillari ijrosida sayqal topadi. Folklor asarlari dastlab qanday yaratilgan bo‘lsa, o‘shanday holicha saqlanib qolmay, ijodiy qayta ishlanib, turli o‘zgarishlarga uchrab, yangi yangi ma‘lumotlar bilan boyib, tarixiy sharoitga moslashib, shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta‘sir etadi. Garchi biz ilk folklor namunalari asl holiga qiziqadigan bo‘lsakda, yuqorida ro‘y beradigan o‘zgarishlarning ham bir qator ijobiy tomonlarini ko‘rishimiz mumkin:

tarixiy voqea-hodisalarga aniqlik kiritish;

ma‘lum davr mobaynida oddiy xalq va davlat amaldorlari ruhiyati yoinki ular o‘rtasidagi munosabatlar;

qadimiy urf-odatlar va madaniy hayot tarzi, mehnat jarayonlari

yozuvchi va shoirlar, qissaxon-u baxshilar va laparchilarning, shu jumladan oddiy xalqning ruhiyati, kechinmalari[4.201].

Yuqoridagi tadqiqatlardan kelib chiqib, ma‘lum xalqning folklori o‘sha xalqning, madaniy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy va hatto iqtisodiy tomonlama tarixini o‘rganishda tarixchilar uchun samarali xizmat qilishi tayin deb ayta olamiz. Zero, folklor bu ajdodlarimizning tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma‘naviy xazina hisoblanadi. Demak asosiy maqsad va vazifa ana shu ma‘naviy xazinani asrab avaylash, qolaversa, uni yosh avlodga yetkazish hisoblanadi. Tengsiz ma‘naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san‘atni, xalq ijodining nodir namunalari asrab avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san‘atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan, ayniqsa, ommaviy madaniyat atalmish milliy madaniyatlarni rad etadigan bir g‘oya bugun butun dunyoni egallab olayotgan ayni XXI asrda yashayotgan ekanmiz, millat madaniyati tanazzulga yuz tutmasligi uchun ham bu borada qator ishlar - islohotlar olib borish naqadar muhim ekanligini guvohi bo‘lamiz. Bu vaziyatni aynan folklorimiz misolida ko‘radigan bo‘lsak, u turli davrlarda turlicha o‘rganilgan, turlicha yondashuvlar bo‘lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma‘noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi desak adashmagan bo‘lamiz. Alpomish dostonining ming yilligini keng miqyosda nishonlanishi, O‘zbekiston xalq baxshisi unvonining ta‘sis etilishi, “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari”ning 100 jildligini nashr etilishi ham mustaqillik yillarida bu borada amalga oshirilgan islohotlarning eng asosiylaridan biri bo‘ldi. Ammo bugunning dolzarb muammosi ulg‘ayib borayotgan yosh avlodning ma‘naviy olamini boyitish, ularni milliy o‘zbekona ruhda tarbiyalash hisoblanar ekan, buni zamonaviy hayot bilan hamohang tarzda olib borilsa bu juda samarali bo‘ladi. Nomoddiy madaniy merosimiz ichida durdonalaridan bo‘lmish folklor qo‘shiqlari bugungi kunda deyarli yo‘qolib ketyapti desak bo‘ladi. Bunga yechim izlar ekanmiz, zamonaviylikdan cheklanmagan holda amalga oshirish yo‘llarini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda

ilm ahli tomonidan folklor atamasi bilan atalayotgan xalq og'zaki ijodi mif, afsona, rivoyat, asotir, maqol, qo'shiq, matal, topishmoq kabi ko'plab janrlarni o'z ichiga oladi. Ular eng qadimgi ajdodlarimiz hayotidan so'zlovchi, ularning turmush tarzini oyna kabi ko'rsatuvchi, muhim vositadir. Shuning uchun ham ularni o'rganish, o'rgatish, shuningdek xalq orasida o'z o'rnini, beqiyos darajasini yo'qotib qo'yishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Buning uchun esa yuqoridagi kabi islohotlarni yanada jadallashtirish va yosh avlodga keng imkoniyatlar yaratib berish lozim. Hozirgi zamonaviy pedagog, nafaqat, o'z fanining yetuk mutaxassisi, balki, dasturchi ham bo'lishi davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki an'anaviy dars jarayonidagi o'qitish usullari, metodlari bugungi kun bolasi uchun zerikarli holga kelib qolgan. Shuning uchun kompyuter texnologiyalaridan ta'lim jarayonida ham foydalanilganda yanada unumli va samarali natijaga erishishi mumkin. Ma'naviyat qadimdan insonning xatti-harakatlari, tafakkurini, jamiyatdagi o'rnini, el-yurtiga, atrofidagilarga bo'lgan munosabatini boshqarib boruvchi vosita hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq, mafkurasi bo'sh odam hayotga loqayd bo'lishi tayin. Loqaydlik esa hech qanday shifosi yo'q darddir! Shu o'rinda, ta'imni tarbiyadan ajratib bo'lmaydi, degan fikrning naqadar haqiqat ekanligini yana bir bor ta'kidlash joiz[5.4,14].

Bolaning ichki olami, dunyoqarashi va tafakkurining rivojlanishida, oqni qoradan ajratish, chin insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalanishida adabiyot fanining o'rni beqiyosdir! Ayniqsa, adabiyot darslaridagi milliy urf-odatlarimiz tarannum etiladigan folklor janrlari: ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar, qo'shiqlar o'quvchilarning milliy o'zligini anglab, hamisha komil inson bo'lishga intilishini ta'minlaydigan vositalardir. Jumladan, ertaklar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy namunalaridan biri bo'lib, ular bolada botirlik, yurtga fidoyilik, sadoqat, mehr-shafqat, saxovat, odamgarchilik va boshqa insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. Ertaklarda voqealar, asosan, mo'jizakor, fantastikaga boy shaklda ifoda qilinadi. Binobarin, mo'jizali va fantaziyaga boy hodisani hayotiy haqiqatga bog'lagan holda tashviq etadi, tinglovchining e'tiborini o'ziga jalb etib, g'aroyibotlar olamiga chorlaydi. Shu sababli bola ertakdagi ijobiy qahramonlarga o'xshab hammaga yordam berishga, duo olishga, yaxshi inson bo'lishga intiladi. Salbiy qahramonlarni, ularning qilgan yovuzliklarini qoralaydi. Shuning uchun ham keksa avlod, eng dastlab, farzandning ma'naviyatini shakllantirish chorasini o'ylagan va ularga ertaklarni vosita qilgan.

MUHOKAMA

Bolalar ertaklarni o'qigandan ko'ra eshitishni yoqtirishlari hayotiy haqiqat. Kichkina paytlarida uxlashdan oldin ertak eshitib uyquga ketish, ertak aytib berishimizni so'rashlaridan ham buni anglash mumkin. Sababi, ertakni o'qib tushungandan ko'ra tinglab tushunish qobiliyati ertaroq rivojlanadi. Bolalarning multfilmlarni xush ko'rish sababi ham ertaklardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini, qahramonliklarini eshitganlaridagi tasavvur qilgan paytida yanayam jonlanadi va qiziqishni orttiradi. Ertaklarda voqealar qachon, qaysi vaqt ro'y bergani aniq bayon qilinmasa ham ular hech qachon ahamiyatini, ohorini yo'qotmay keladi. Xalq og'zaki ijodining bu o'lmas namunalari maktab darsliklaridan ham joy olgan bo'lib, darslikda "Uch og'a-ini botirlar", jahon adabiyotidan Aka-uka Grimmlarning "Botir tikuvchi" ertaklari kiritilgan. Bu ertaklar dars jarayonida zamonaviy multimedia vositalar yordamida tushuntirilganda o'quvchilarning shuuriga singishiga, asosiy tarbiyaviy g'oyasini saqlagan holda yetib borishiga erishiladi, deb hisoblaymiz. "Uch og'a-ini botirlar" ertagida mo'ysafid otaning o'gillariga: „To'g'ri bo'ling-bexavotir bo'lasiz, maqtanchoq bo'lmang-xijolat tortmaysiz, dangasa bo'lmang - baxtsiz bo'lmaysiz“, deya tarbiyalashiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, katta hayotda haqiqiy inson bo'lishda bu xislatlar muhim ekanligini anglash mumkin[7].

Dars jarayonida ertakdagi shu va boshqa epizodlarni rollarga bo'lib, audio shaklda taqdim etish, ertak asosida yaratilgan multfilmdan parchani "Karaoke" usuli orqali qo'yib berish mumkin. Bunda monitor orqali mutfilm ko'rinib turgan holda uning patski qismida qahramonlarning nutqlari ovozsiz karaoke shaklida namoyish qilinadi, o'quvchilar esa rollarga bo'linib ularni ijro etishi mumkin. Ushbu usul orqali o'quvchi o'sha ijro etgan obrazini yanada chuqurroq his qilishi, ertakning didaktik g'oyasini anglashi, karaoke vositasida so'zlarni to'g'ri o'qishni, talaffuz me'yorlarini o'zlashtirishi kabi natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek, darsning mustahkamlash qismidan 5-8 daqiqa ajratilib, interfaol o'yinlar, mashqlar, korssvord, animatsion ko'rinish, video, audio materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday vositalarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy dasturlar ko'makdosh bo'ladi:

Bu dasturiy vositalarni kompyuter yoki smartfonga internet tarmog'idan yuklab olgan holda o'rnatib, sinfdan proyektor yoki elektron doska yordamida ishlatish mumkin. Jumladan, Learning Apps.org sayti orqali hamma fanlarga oid turli xil mashqlar, topshiriqlar yaratish mumkin.

O.Abdullayeva "Umumiy o'rta ta'limda ertak o'qitish metodikasi" tadqiqotida ertak o'rganish darslarining qurilishini quyidagicha qismlarga ajratgan edi:

1. Ertak bilan tanishtirish: a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash; b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi.
2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;
3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish;
4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish;
5. Ertakni so'zlab berish;
6. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochib berish)
7. Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish;
8. Vazifani tekshirish va yakunlash;

9. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish".

Darhaqiqat, muayyan badiiy matn ma'lum bosqichlar asosida o'zlashtirilgandagina kutilgan ijobiy natijaga to'liq erishish mumkin.[6;27-b]

Ertak matni ustida ish olib borganda o'quvchilarning ertak mazmuniga mos savollar tuzishi, ularga javob berishi, reja tuzishi, bosh qahramonlar xususiyatlarini muhokama qilishi, biron epizodini tasvirlab berishi mumkin. Masalan, yuqorida ta'kidlab o'tilgan Aka-uka Grimmlarning "Botir tikuvchi" ertagidagi Gansga xos bo'lgan xususiyatlarni "SWOT texnologiyasi" orqali sanab bering.

O'quvchilar taxminan quyidagicha bajarishlari mumkin:

"SWOT" tahlil metodi

S — Strengths (Kuchli tomonlari), W — Weaknesses (Zaif, kuchsiz tomonlari),

O — Opportunities (Imkoniyatlari); T - Threats (Xavf-xatar yoki to'siqlar).

Mazkur metoddan "Botir tikuvchi" ertagini o'rgatish davomida foydalanish mumkin. Ya'ni guruhlariga bo'lingan o'quvchilar oldiga Oansning kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari va bunga to'siq ho'luvchi omillarni aniqlash vazifasi topshiriladi.

E'tibor qiladigan bo'lsak, tikuvchi butun asar davomida biror kimsaga yomonlik tilamaydi. Lekin uning yaxshi insonligiga shubha qiluvchi hasadgo'ylar unga har xil tuhmat-u bo'htonlar yog'dirishadi va oxirida o'zlari qiynalib qolishadi. Ertakda to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, halol va mard bo'lish kerakligi g'oyasi ilgari surilgan. O'qituvchi har bir asarning xoh u she'riy, xoh nasriy asar bo'lsin dars yakunida xulosalovchi fikr aytishi lozim. Shundagina o'quvchilarning asarni to'g'ri anglay olishiga erishish mumkin bo'ladi. Zotan, ertak bolalarda qahramonlarning xatti- harakatlarini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. "O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida" kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmad?)", „Nima uchun?“, „... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)“, „Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari yordam berdi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)“ kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosa chiqaradilar“.

"Nima uchun?" muammoli ta'lim texnologiyasi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi har bir millatning asrlardan asrlarga avlodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tuvchi nodir san'at namunasi hisoblanadi. O'zbek xalqi ham boy tarix, katta milliy xazinaga egadir. Villar to'zonidan eson- omon o'tib kelayotgan folklor janrlari, jumladan, ertaklarimiz ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy, maktab, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda yo'l boshlovchi vazifasini o'taydi. Xalqning turmush tarzi, boshidan kechirgan tajribalari asosida yuzaga kelgan. Buyuk tarixga ega o'zbek halqimiz dunyodagi boshqa xalqlar kabi hazilni, taqlidni, kulgini yaxshi qabul qiladilar. Kulgi insonga sog'lik, yaxshi kayfiyat, o'z-o'zidan qoniqish tuyg'usini bag'ishlaydi. Xalqimizning dono farzandlari Yusufjon qiziq, Aka Buxor, G'anijon Toshmatov kabilar hayot mashaqqatli kechgan paytlarda ham yurtimiz ahliga tetiklik, umid, ishonch ulashganlar. Bunday natijaga erishish o'z vaqti uchun juda og'ir bo'lgan. Latifalar, loflar, askiya, xalq dramasi asarlari, muqallidchilikdan unumli foydalanish zukko va iqtidorli insonlarni haqiqiy ma'noda xalq sevgisini qozonish sharafiga muyassar qildi. Inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi xastalik xurujini chetroqqa surishda kulgili latifalar juda samarali vosita hisoblangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza) .

2. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964. – 68 b.;

3. "Alla-yo alla" (O'zbek xalq allalari). Toshkent -1999

4. Egamov X. Sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an'analari aloqalari tarixidan ocherklar.- Toshkent: O'qituvchi, 1980.211-b.

5. Imomov K. Mirzayev T. Sarimsoqov B. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1990.4-14-betlar.

6. Jahongirov G'. Bolalar ertaklari. –T.: 1972. –B. 7.

7. Jumaboyev.M "O'zbek bolalar adabiyoti". Toshkent -2002

8. G'afforova T., Nurullayeva Sh, Mirzahakimova Z. "O'qish kitobi": 2-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Sharq", 2014.

9. G'affarova T, Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Sharq", 2014

10. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2008.

11. Rajabova R. Z. "O'zbek bolalar adabiyotida folklor janrlari stilizatsiyasi (nasriy ertak va topishmoq misolida) 10.00.02 – O'zbek adabiyoti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati Buxoro – 2022. 5-7-b,123-b.